O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b.
Z.Ya.Raxmanov
«____»_____2026 yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
«____»_____2026 yil

“Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fani bo‘yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2026 yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, nutqlari, murojaatlari va muhim Farmonlari, qarorlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ilmiy unvonga tabagorlarning respublikada olib borilayotgan davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-ma’rifiy ishlarning asoslarini o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Dasturning asosiy maqsadi fan bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy hamda amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: t.f.d., prof. A.Sabirov
t.f.d., prof. F.Ismatullaev

Taqrizchilar: t.f.d. prof. J.Ismailova
p.f.d., dots. R.Yarmatov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida ilmiy unvonlarga talabgorlar uchun “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fanidan maxsus

IMTIHON DASTURI

Imtihonning maqsad va vazifalari. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma’naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o‘ziga xos hamda o‘ziga mos yo‘lini tanladi. Mamlakatimiz o‘tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Vatanimizda sog‘lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini namoyon qilish, yaratish, bunyodkorlik bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tish tajribasi, oqilona va odilona ichki hamda tashqi siyosati, tanlagan yo‘li – rivojlanishning «O‘zbek modeli» nomi bilan dunyoga tarqalib, tan olindi. O‘zbekistonning «o‘ziga xos va o‘ziga mos» taraqqiyot yo‘li, yo‘nalishlari, istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab milliy an’analarimizga asoslangan yangi davlatchilik nazariyasi, milliy tiklanish g‘oyasi, mamlakatimizning o‘tmishi va bugungi taraqqiyoti, ushbu rivojlanish zamiridagi muammolar, istiqbolda mo‘ljallangan strategik masalalar, mintaqaviy va xalqaro siyosat, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va mavqei kabi dolzarb masalalar ishlab chiqildi. Shuningdek, O‘zbekistonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat xususiyatlari, demokratiya va xalq ruhiyati, demokratik tamoyillar rivoji, madaniyatlar va sivilizatsiyalar sintezi, fuqarolik jamiyati tizimini shakllantirish yo‘llari, milliy mafkura zarurati va uning negizlari, milliy qadriyatlarni tiklash, necha ming yillik tariximizni o‘rganishning konseptual g‘oyalari asoslab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy jarayonlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularni hayotga tatbiq etishdagi muammo va yechimlar hamda ijtimoiy fanlarning asosiy nazariy yo‘nalishlari to‘liq o‘z aksini topgan. Shu bois, bu masalalarni puxta bilish, ularda yoritilgan g‘oya va nazariyalar mohiyatini anglab yetish har bir fuqaro uchun, ayniqsa, ijtimoiy fan mutaxassislari uchun zarur. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlarini o‘rganish jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil kilishga, muammolarni har tomonlama idrok etishga yordam beradi. Ushbu yo‘nalishni tashkil etishdan maqsad – ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida ilmiy unvonlarga talabgorlarning fikrlash qobiliyati, mustaqillik mafkurasini idrok eta olish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar bo‘yicha nazariy tayyorgarligi, yuksak ma’naviyati va ma’rifatliligini baholashdan iborat. Ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida ilmiy unvonlarga talabgorlar uchun “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy rivojlanishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fanidan maxsus imtihon dasturi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: 1. Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va ilmiy asoslanganligi darajasi. 2. Ilmiy taqdiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nazariy qarashlarining o‘rni. 3. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ilmiy asoslari va ustuvor yo‘nalishlari. 4. Milliy davlatchilikni mustahkamlash, jamiyat hayotini isloh etish va mamlakatni modernizatsiya qilish, sud-huquq sohasidagi islohotlar. 5. Mustaqillik mafkurasi negizlari, ma’naviyat, ma’rifat, milliy g‘oya, mafkura va davlatning barqaror rivojlanishiga tahdidlar, ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlari. 6. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning samarali mexanizmlari, uchinchi renessans poydevorini qurishning tarixiy, huquqiy va falsafiy asoslari.

I BO‘LIM. ILMIY TADQIQOT ISHINING DOLZARBLIGI VA ILMIY ASOSLANGANLIGI DARAJASI

Ilmiy tadqiqot mavzusining tanlanganligi zaruriyati va amaliyot bilan bog‘liqligi. Mavzuning dolzarbligi va uning ilmiy asoslantirilganligi. Ilmiy tadqiqot ishining oliy ta’lim muassasasining ustuvor tadqiqotlar rejasiga muvofiqligi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va boshqa muhim strategik yo‘nalishlarga bag‘ishlangan dasturulamal hujjatlarga bog‘langanligi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan isloxotlarda vorisiylik: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” mavzusidagi 2017-yil 14- yanvardagi ma’ruzasida ilgari surilgan g‘oyalar mazmuni o‘rganish nazarda tutilgan. Muammoning o‘rganilganlik darajasining yoritilishi holati. Ilmiy tadqiqot ishida mavzuga oid xorijiy adabiyotlar bilan ishlash darajasi. Ilmiy tadqiqot ishida mahalliy olimlar va mutaxassislar ilmiy ishlaridan foydalanishning holati. Tadqiqot maqsadi va vazifalarining bayon etilishi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun belgilangan vazifalarning dolzarbligi. Tadqiqotning obekti va predmetining asoslantirilganligi. Tadqiqotning metodologik asosini tashkil etuvchi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining aks ettirilishi, demokratik huquqiy davlatda ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilishning falsafiy, nazariy-huquqiy usullarining qo‘llanishi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, turli anjumanlarda so‘zlagan nutqlarida ifodasini topgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jamiyat hayotini erkinlashtirish, inson huquqlari bo‘yicha konsepsiyalarning muhim uslubiy asos sifatida ko‘rsatilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini SH.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasidagi belgilangan vazifalar hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan g‘oyalarning metodologik ahamiyati. Tadqiqotning manbasi, o‘rganilgan adabiyotlar va materiallarning hajmi, ularning qo‘llanilishi holati. Tadqiqot ilmiy yangiligining farazi. Ilmiy tadqiqot natijasida olinadigan ilmiy yangilikning bayon etilishi. Ilmiy yangilikning boshqa ilmiy jamoatchilik tomonidan muqaddam bayon qilingan ilmiy mulohazalardan farqi. Himoyaga ilgari surilayotgan ilmiy fikrlar, holatlar va tavsiyalarning bayoni. Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari, undagi holatlarning tadqiqotchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy maqolalar va tezislarda bayon etilganligi, dissertatsiya materiallaridan ta’lim muassasalari doirasida o‘tkazilgan ilmiy va amaliy mashg‘ulotlar hamda tadbirlarda foydalanilganligi. Tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tganligi. Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Tadqiqotchi nutqining ilmiyligi, mulohaza va fikrlarning mantiqiyligi, ilmiy munozaraga kirisha olish qobiliyati.

II BO‘LIM. ILMIY TAQDIQOT ISHIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOYEV ASARLARI VA NAZARIY QARASHLARINING O‘RNI

Ilmiy tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlaridan foydalanish uchun tanlangan uslub. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev asarlarining ilmiy tadqiqot ishida qo‘llanilishi uchun tayyorlangan bibliografiya tarkibi. Ilmiy tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning nazariy qarashlarining asos qilib olinish zaruriyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlari, turli anjumanlarda so‘zlagan nutqlarida qo‘yilgan konseptual fikrlar va muammolarning tadqiqot uslubiy asosi sifatida olinganligi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida bayon qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ning ilmiy tadqiqot ishida nazariy asos sifatida olinganligi darajasi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxotlar nazariyasi va amaliyotida vorisiylik: “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari” konsepsiyasi hamda 2022

— 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan ilmiy tadqiqotda foydalanilgan darajasi. Huquqiy davlat: g‘oyalar tarixi va hozirgi zamon “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasining siyosiy qurilish dasturi va uni joriy etish muammolari. O‘zbekiston mustaqillikka erishish yo‘lida taklif etilgan milliy davlatchilik va iqtisodiy rivojlanish strategiyasining nazariy jihatdan asoslantirilgani, uning ilmiy tadqiqot ishida aks ettirilishi. Mustaqillikning e’lon qilinishi va uning dastlabki bosqichida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ilmiy-nazariy sharhi. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga ilmiy-nazariy o‘tish zarurligining O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan ilmiy asoslanishining tadqiqot ishida aks ettirilishi. Bozor munosabatlariga o‘tishning “O‘zbek modeli”ning ishlab chiqilishi va uning ilmiy asoslanishi. “O‘zbek modeli”ning amaliyotga joriy etilish jarayoni va uni hozirgi zamon nuqtai nazaridan takomillashtirilishi. Tadrijiy taraqqiyot nazariyasi va uning bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tishda maqbul yo‘l ekanligi. Eskilik bilan yangilik orasidagi ziddiyatlar, tafovutlar va ularni bartaraf etish omillari. Mustaqillik va milliy taraqqiyot konsepsiyasining natijalari va xamda istiqboldagi vazifalari. Milliy taraqqiyot va umumbashariy hamkorlik uyg‘unligi. Ziddiyatlarni murosa asosida hal etish nazariyasi. Jamiyatda manfaatlar va o‘zaro bog‘liqlik tendensiyasi. Islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani va uning ijobiy natijalari. «Ijtimoiy tabaqalashuv va milliy hamjihatlik», «milliy manfaatlar» tushunchalari. O‘rtahol tabaqa mavqeining ortib borishi. Sobiq totalitar mafkuraning zararli oqibatlari. Plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, shaxs erkinligi va demokratiya tamoyillari. Ijtimoiy ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish nazariyasi. Tafakkurdagi evrilish va o‘zgarishlar. Mulkdorlik ruhiyatini tiklash va yangidan shakllantirish, kishilarda ishbilarmonlik, tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Xalq boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi” g‘oyasining amaliyotga tatbiq etilish jarayoni.

III BO‘LIM. O‘ZBEKISTON IQTISODIY SIYOSATINING ILMIY ASOSLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar huquqiy asoslarining barpo etilishi va institusional o‘zgarishlarning konseptual asoslari. O‘zbekistonning ichki iqtisodiy siyosatida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish strategiyasi. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlarining belgilanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish va uni isloh qilish strategiyasining asosi. Iqtisodiyotni isloh qilishning strategik maqsadlari. O‘zbekistonda qabul qilingan o‘ziga xos islohot modeli va tamoyillari. Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarurati va ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining ustuvor yo‘nalishlari: moliya va soliq siyosati sohasida; kredit-pul siyosati sohasida; narx-navo bo‘yicha va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat sohasida. Mustaqil davlatimiz iqtisodiyotga oid qonunlar tizimini ishlab chiqish va qabul qilishning obektiv sabablari. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizi yaratilishidagi muhim yo‘nalishlar: - O‘zbekistonning davlat va iqtisodiy mustaqilligi huquqiy negizlarining yaratilishi; - tizimdagi o‘zgarishlarga, sifat jihatidan yangi iqtisodiy munosabatlarga, eng avvalo, mulkchilik munosabatlariga asos soluvchi huquqiy bazaning yaratilishi; - xo‘jalik yuritish, institusional o‘zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi turi va mexanizmining yaratilishi; - O‘zbekistonni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli subekti sifatida ta’riflovchi huquqiy normalarning yaratilishi; - ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llabquvvatlashni ta’minlovchi qonunlarning ishlab chiqilishi va takomillashtirilishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida yangicha huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatni shakllantirish muammolari hamda yechimlari. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yo‘llari va vositalari, ularni qo‘llash uslublari. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bosqichlari hamda xususiyatlari. Yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish yo‘llari. Xususiylashtirish va raqobat muhitini shakllantirish. Xususiylashtirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashda mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. O‘zbekiston

iqtisodiyotida agrar sektorni isloh qilish strategiyasi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini isloh qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirish agrar siyosatning muhim sharti ekanligi. Dehqon, fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish va takomillashtirish, don mustaqilligiga erishish. O‘zbekistonda institusional o‘zgarishlarning zarurligi va ahamiyati. Boshqaruv tizimi va mexanizmi sohasidagi islohotlar. Markazdan turib boshqarish va rejalashtirishdan voz kechib, erkin bozor iqtisodiyoti mexanizmini shakllantirish. Davlatning iqtisodiyotni bevosita boshqarish funksiyasining uni iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solish funksiyasiga aylantirilishi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyotni boshqarishda nomarkazlashtirish. Iqtisodiyotni tartibga solishda nodavlat va jamoat tashkilotlari rolining oshishi. Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish zaruriyati va muhim yo‘llari. Korporativ boshqaruv tizimi joriy etilishining dolzarb muammolari va ularning hal etilishi. Narxlarni erkinlashtirish iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim sharti ekanligi. Talab va taklif asosida erkin bozor narxlarining yuzaga kelishi – bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlaridan biri. Ma’muriy-buyruqbozlik sharoitida narx-navolar tizimi va uni isloh qilish zarurati. 1991-1995 yillarda narxlarni erkinlashtirishdagi jiddiy o‘zgarishlar. O‘zbekistonning geografik xususiyatlari. O‘zbekistonga nisbatan geosiyosiy va geoiqtisodiy qiziqishlar oshib borishining sabablari. O‘zbekistonning moddiy imkoniyatlari, tabiiy boyliklari, zahirasi. O‘zbekistonda neft va gaz, tog‘-kon sanoatining istiqbollari, undan omilkorlik bilan foydalanishning amaliy tadbirlari. Erkin iqtisod, iqtisodni erkinlashtirish, ochiq iqtisod va iqtisodiy islohotlar tushunchalarining mazmun-mohiyati. Ochiq iqtisodiyot poydevorini vujudga keltirishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi komissiyasi va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda O‘zbekiston bilan hamkorligi. Milliy valyutaning joriy etilishi. Bozor munosabatlari tizimida milliy valyutaning tutgan o‘rni va roli. Kuchli milliy valyuta – mamlakat iqtisodiy mustaqilligining ramziy mezoni. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining natijalari va saboqlari. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining ustuvor yo‘nalishlari. Davlat mulkini xususiylashtirish bo‘yicha boshlangan ishlarni yakunlash, chinakam mulkdorlar safini kengaytirishni jadallashtirish, ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, xom-ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish. Davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini qisqartirish, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga erkinlik berish. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat mulkini xususiylashtirishga qo‘yilgan asosiy talablar. Haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish. Xususiylashtirish orqali mamlakatda iqtisodiy raqobat muhitini yaratish. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarda ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash raqobatbardoshligini ta’minlash vositasi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda xususiylashtirish jarayonlarining asosiy maqsad va yo‘nalishlari. Tarmoq va mintaqaviy xususiylashtirish, xususiylashtirishda hududiy darajadagi markazlar maqomining oshirilishi, yirik va o‘rta korxonalarni keng ko‘lamli aksiyadorlikka o‘tkazish, qishloq joylarida xususiylashtirishni jadallashtirish, qishloq xo‘jaligi yerlarini meros qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berish. Sanoatning asosiy tarmoqlarini xususiylashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ikkinchi bosqichda xususiylashtirilgan korxonalarning unumli ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. Mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish siyosatining maqsadi. O‘zbekistonning iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi o‘ziga xos yondashuvi. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida byudjet-soliq siyosatining muhim vazifalari. Pul muomalasini tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlari. Bank va moliya tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish, qat’iy pul-kredit siyosatini o‘tkazish. Inflyatsiya darajasini pasaytirish choralari. Iqtisodiy islohotlarni

chuqurlashtirishga qaratilgan o‘zgarishlarni amalga oshirishda chet el investorlarini jalb qilish va qo‘shma korxonalarga qo‘shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar berish. Chet el investorlari uchun belgilangan kafolatlar. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalar. Chetdan xomashyo, butlovchi qismlar va oziq-ovqat mahsulotlari keltirishni qisqartirish maqsadida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish, respublika iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash yo‘nalishlari, xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni talab bilan muvofiqlashtirish, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish va to‘lov balansini ijobiy qoldig‘ini ta’minlash choralari. Respublikada o‘zak tarmoqlarni rivojlantirish yo‘nalishlari. Energetika mustaqilligiga erishish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalar. Metallurgiya kompleksidagi tarkibiy o‘zgarishlar yo‘nalishlari. Faol investitsion siyosatni o‘tkazish chora-tadbirlari. Tashqi investitsiyalarni jalb qilish va ichki imkoniyatlardan foydalanish istiqbolini belgilash vazifalari. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari. Mehnat, tovar, xomashyo, fond birjalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Moliya, bank-kredit tizimlarini rivojlantirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvini ta’minlashda xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar bilan munosabatlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va jamiyatda tadbirkorlikni qaror toptirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning maqsadi sifatida. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustuvor vazifalari. Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xususiy mulk miqyosining kengayib borishi va xususiy tarmoqni jadal rivojlantirish. Moliya va bank tizimida islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni. O‘zbekiston milliy valyutasi – so‘mning barqarorligi, xarid quvvati va almashuv kuchini oshirish. Milliy valyutaning boshqa davlatlar valyutasiga nisbatan almashuv kursining o‘zgarishi sabablari. Soliq siyosatini takomillashtirish jarayoni. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishning ahamiyati. Kichik biznes uchun qo‘shimcha kafolat, imtiyoz va preferensiyalar berish. Aholini ish bilan ta’minlashda kasanachilikni rivojlantirish, uning ijtimoiy ahamiyati. Davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash. Uy-joy kommunal xo‘jaligini isloh qilish zaruriyati. Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi muammolar va ularning yechimlari. Uy-joy kommunal xo‘jaligini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari. Mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaning tutgan o‘rni va istiqboli. XXI asr boshida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi dolzarb vazifalar. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan choralar. Qishloq xo‘jaligida fermerlikni rivojlantirishdagi asosiy vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. XXI asrda O‘zbekiston iqtisodiyoti. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan yangi tamoyillar asosida olib borayotgan iqtisodiy aloqalarining turi va tamoyillari. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi. Xorijiy sarmoyalarni milliy iqtisodiyotga kiritish tamoyillari, imtiyozlari va muammolari. Islohotlarning yangi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish va ishlab chiqarish mahsulotlarini diversifikatsiya qilish to‘g‘risida. XXI asr boshida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi, eksport va import tarkibini tubdan o‘zgartirish muammolari. Mamlakatning eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash. O‘zbekistonning eksport-import tarkibidagi ijobiy o‘zgarishlar va tashqi savdo geografiyasida yuz bergan o‘zgarishlar. Mamlakatni va ijtimoiy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning o‘zaro bog‘liqligi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlar va yechimini kutayotgan vazifalar hamda ichki siljishlarning asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashning eng asosiy sharti – strategik tarmoqlarni (mashinasozlik, neft-gaz, energetika) ustuvor rivojlantirish. Ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti hamda ijtimoiy infratuzilmalarni shakllantirishni kuchaytirish vazifalari. Iqtisodiyotimizning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirish – tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor vazifasi. Tarkibiy o‘zgarishlarni moliyaviy va texnikaviy jihatdan ta’minlash muammolari. Tarkibiy o‘zgarishlar va aholini yangi ish joylari bilan ta’minlash vazifalari. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini

o‘zgartirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning istiqboldagi yo‘nalishlari. Davlatning investitsiya siyosati. Chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish mexanizmi. Iqtisodiyotning eksportga yo‘naltirilgan tarkibiy tuzilishini shakllantirish. Mahalliy xomashyo negizida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak!” nomli ma’ruzasida o‘tgan 2016 yilda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlantirishning ayrim ko‘rsatkichlariga erishilmaganligining asosiy sabablari haqida. Aholining ish bilan bandligini ta’minlash va ishsizlik soni o‘sishining oldini olish chora-tadbirlari. Mehnat bozorini takomillashtirish va davlatning bandlik dasturi, uning asosiy yo‘nalishlari. Kollej, litsey va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashning davlat tomonidan moliyaviy rag‘batlantirilishi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va muntazam ravishda chuqurlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yutuqlari, saboqlari hamda vazifalari tahlili. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishini ta’minlash, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish. Ishonchli ijtimoiy himoya va kafolatlar tizimini takomillashtirish muammolari hamda asosiy yo‘nalishlari. Ijtimoiy infratuzilmaning moddiy asosini mustahkamlash va rivojlantirish vazifalari. Kuchli mehnat motivatsiyasini shakllantirish yo‘llari. Kam ta’minlangan aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy asoslari O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Xususiy mulk va mulkdorlar qatlamining shakllanishi. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o‘rni. «Demokratik jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish» tushunchasi va uning mazmuni. Totalitar, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat prinsiplarining o‘zaro bog‘liqligi. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va unga o‘tishning o‘ziga xos yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishdagi nazariy asoslarining ishlab chiqilishi va uning bosqichlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslari yaratilishi. O‘zbekistonda bozor infratuzilmasining vujudga kelishi. O‘zbekistonning boy tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlari. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar: yutuqlar, natijalar va muammolar. O‘zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlatning ba’zi vakolatlarini cheklash va vazifalarini mahalliy organlarga o‘tkazish. Oilaviy biznesni rivojlantirish jarayonlari. O‘zbekiston Respublikasida mulkdorlar sinfining vujudga kelishi va uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish. Ijtimoiy yo‘naltirilgan ko‘p ukladli iqtisodiyot. “Mulk” tushunchasi, uning asosiy belgilari. Mulkning ijtimoiy ildiz ekanligi, uning fuqaroviy demokratik asoslari. Iqtisodiy plyuralizm. Mulkiy mustaqillik. O‘zbekistonda mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishi – demokratik taraqqiyot asosi. O‘zbekistonda yer umummilliy boylikdir. O‘zbekistonda boylik va kambag‘allik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish – iqtisodiy taraqqiyot omili. Oilaviy tadbirkorlik – xalq farovonligining asosi. O‘zbekistonda monopoliyaga chek quyish va raqobat muhitini yaratish. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish: makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institusional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash; harajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo

munosabatlarni takomillashtirish; soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish; ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash; bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlashni yanada kengaytirish; sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish; xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish: milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash; ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish; iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish; faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish; xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish; turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish; eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish; yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish: tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish; fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash

mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish; sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish; kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish; global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish: xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish; davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish; korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish; tadbirkorlik subektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlatxususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish; yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish; sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish; sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish. Zarar ko‘rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni sog‘lomlashtirishda tijorat banklarining rolini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar. Eski texnologiyalar asosida ishlayotgan, istiqbolsiz korxonalarni tugatish, ularning o‘rnida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishning dolzarb masalalari. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida ishlab chiqarishni vertikal va gorizontal diversifikatsiyalash

zaruriyati va ahamiyati. Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan respublika yirik tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish. Hukumat, joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash. Birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining korxonalar faoliyatini moliyalashtirishdagi rolini oshirish yo‘llari. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha belgilangan vazifalar. Jahon bozorida narxi tushib ketayotgan xomashyoni eksport qilish amaliyotidan raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilish amaliyotiga o‘tish choralari. Xalqaro moliya institutlarining mablag‘lari hisobidan yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, ular bilan hamkorlikda yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilish yo‘nalishlari. Yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikatsiya obektlarini, qishloq xo‘jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish hamda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko‘tarish, faol investitsiya siyosati va uni amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar. Strategik ahamiyatga ega investitsiya loyihalari, strategik tarmoqlar va yirik korxonalarning uzoq muddatli texnika siyosati nuqtai nazaridan ishlab chiqilayotgan yangi loyihalarni amalga oshirish muddatlari va shartlarini muvofiqlashtirish masalalari. Inqirozga qarshi choralar dasturida tadbirkorlik faoliyatini soliqlar vositasida rag‘batlantirish va soliq yukini yengillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. Inqirozga qarshi choralarda davlat tuzilmalarining iqtisodiyot sohasiga asossiz aralashuvini kamaytirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosatining o‘rni va ahamiyati. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferensiyalarning xo‘jalik subektlarining aylanma mablag‘larini to‘ldirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish, ishchilarni moddiy rag‘batlantirishdagi ahamiyati. Qishloqlarda uyjoylarni qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlariga berilgan soliq imtiyozlari va ulardan maqsadli foydalanish yo‘nalishlari. Inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosi jarayonida sug‘urta riskini kamaytirish, davlat tomonidan sug‘urta faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni diversifikatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning natijalari. Iqtisodiyotning agrar sektorida tarkibiy sifat o‘zgarishlari. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. Mamlakatda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari. Respublikada transport-kommunikatsiya va infratuzilmani rivojlantirishning ahamiyati. Faol investitsion siyosatni amalga oshirish yo‘nalishlari. Respublikada erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari. Yoshlarni ish bilan ta’minlash va aholi daromadlari hamda turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan dolzarb vazifalar. Respublikada kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha davlatning moliyaviy siyosati. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va tarkibiy o‘zgarishlarning zarurligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak!” nomli ma’ruzasida 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilab olinishi zarurligi va kelgusi besh yil davomida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan strategik vazifalar xususida

IV BO‘LIM. MILLIY DAVLATCHILIKNI MUSTAHKAMLASH, JAMIYAT HAYOTINI ISLOH ETISH VA MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISH, SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

O‘zbekiston - suveren davlat O‘zbekistonda yangi davlatchilik, davlat va xalq hokimiyatining qaror topishi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro hokimiyati va sud hokimiyatiga bo‘linishi. Mamlakatimiz hududida davlatchilik an’anasining qadimiyligi, qadimiy an’analarning

hozirgi ko‘rinishi. Konstitusiya — istiqlolning buyuk hujjati, qonunchiligimiz asosi, yangi davlat va fuqarolik jamiyatining huquqiy asosi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Demokratiya shartlari: barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, har bir kishi haq-huquqining himoya qilinishi, milliy, diniy, jinsiy mansublikdan qat’i nazar, o‘zaro tenglik va totuvlikning ta’minlanishi. Sobiq yakkahokimlikka asoslangan mafkura va eskicha qarashlardan voz kechish. Mustaqil davlatda fikrlar xilma-xilligini jamiyatning odatiy taomiliga aylantirish. O‘tish davrida davlatning barcha sohalardagi islohotchilik roli. Bozor munosabatlariga o‘tishning modellari «O‘zbek modeli» tushunchasi. Demokratik jamiyat qurishning tarixiy va zamonaviy modellari: «Turk modeli», «Shved modeli», «Yapon modeli», «Milliy model», «Sharqona model». Demokratiya modellarini «eksport» qilishning milliy davlatchilik taraqqiyoti uchun xavfli jihatlari. «O‘zbek modeli»ning rivojlanish konsepsiyasi. «O‘zbek modeli»ning asosiy tamoyillari: iqtisodiyotning mafkuradan mutloq xoliligi, davlat bosh islohotchi ekanligi, qonunustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichmabosqich o‘tish. «O‘zbek modeli»ni amaliyotga tatbiq etishning asosiy bosqichlari. «O‘zbek modeli»ning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi. «O‘zbek modeli»ning rivojlanish istiqbollari. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojlanishi jarayonida saylov va referendum institutlarining o‘rni, qonun chiqaruvchi hokimiyat «Saylov» va «referendum» tushunchalari. Saylov va referendum institutlarining huquqiy asoslari. Dunyodagi saylov, referendum o‘tkazish tartibi: muammo va yutuqlar. Demokratik jamiyatda saylovlar. O‘zbekistonda saylov tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy partiyaning «vakolatli vakili». Kuzatuvchi maqomi. Saylov tizimi subektlari. Referendum. Davlat hokimiyati vakillik organlarini saylash tartibi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi. Qonun ishlab chiqarish jarayoni. Qonun qabul qilish tartibi. Oliy Majlis vakolatlari. Qonunchilik palatasi, Senat qo‘mitalarining huquqiy asoslari. Muqobil saylovlar – fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim omili. Xalq hokimiyatchiligini mustahkamlashda referendum va saylov tizimining o‘rni. Saylov va referendum o‘tkazish tartibining hozirgi davrdagi dolzarb muammolari. Saylovoldi tashviqoti. Muddatidan oldin ovoz berish. Referendum – xalq irodasining oliy ifodasi. Sud hokimiyati Sud hokimiyati tushunchasi. Sud hokimiyati tarkibi. Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish tartibi. Sud mustaqilligi g‘oyasi. Sudlar ixtisoslashuvi. Konstitusiyaviy sud. Oliy sud. Oliy xo‘jalik sudi. Mahalliy sudlar va ularning huquqiy maqomi. Sud va prokuratura. Sud va Ichki ishlar idoralari. Prezident va sud hokimiyati. Adliya vazirligi vakolatlarining kengayishi. Apellyatsiya instansiyasi. Kassatsiya instansiyasi. Prokuror va advokatning tengligi. “Xabeas korpus” institutining joriy etilishi. Yarashuv institutini takomillashtirish. Ijro hokimiyati Ijroiya hokimiyati tushunchasi. Ijro hokimiyati tarkibi. Vazirlar Mahkamasini tashkil etish tartibi va uning tarkibi. Bosh vazirning huquqiy maqomi. Mahalliy davlat ijroiya organlari va ularning vakolatlari. Hokimlarni tayinlash tartibi. Hokim – mahalliy ijroiya va vakillik organlari boshlig‘i. Parlament va ijroiya hokimiyati. Prezident va ijroiya hokimiyati. Bosh vazir lavozimiga nomzod ko‘rib chiqish va tayinlash tartibi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat haqidagi g‘oyalari Sharq Uyg‘onish davri (IX-XII asrlar)dagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat haqidagi ta’limotlar. Abu Nasr Forobiy (873–950), Nizomulmulk (1018–1092), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Burhoniddin Marg‘inoniy (1123–1197)ning siyosiyhuquqiy qarashlari. Amir Temur (1336–1405)ning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari. «Temur tuzuklari», uning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdagi ahamiyati. Amir Temur davlat boshqaruvini tashkil etish prinsiplari haqida. Alisher Navoiy (1441–1501) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1483– 1530) ijodidagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat haqidagi ijtimoiysiyosiy g‘oyalar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va siyosiy g‘oyalar. Jadidlar va ularning ma’rifatparvarlik, siyosiy-huquqiy qarashlari. Abdulla Avloniy (1875–1934), Abdurauf Fitrat (1886–1938), Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919), Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878–1931), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Abdulhamid Cho‘lpon (1897– 1938)larning ma’rifatparvarlik g‘oyalari. 2010 yil 12 noyabrda e’lon qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”ga muvofiq, «Davlat hokimiyati

va boshqaruvini demokratlashtirish»ning mazmun-mohiyati va unda ilgari surilgan g‘oyalar. «Sud-huquq tizimini isloh etish»ning mazmuni va unda ilgari surilgan g‘oyalar. Sud-huquq tizimida yechimini kutayotgan muammolarga an’anaviy, mantiqiy, falsafiy nuqtai-nazar asosida yondashuv. “Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash»ga bag‘ishlangan bo‘limning mazmun-mohiyati, bu borada ilgari surilgan taklifmulohazalar. «O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish»ga bag‘ishlangan bo‘limning mazmunmohiyati va unda ilgari surilgan g‘oyalar. Davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish sharoitida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tutgan o‘rni. «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari» tushunchasi va huquqiy maqomi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish tartibi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar. Mustaqillik davrida mahalla institutining rivojlantirilishi. Mahalla – fuqarolik jamiyatining noyob instituti. Taraqqiyotning yangi bosqichida mahallaning o‘rni va roli. «Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish» bo‘limining mazmun-mohiyati. I.Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”dagi «Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish» bo‘limining mazmun-mohiyati. Jamiyatni demokratlashtirish, ijtimoiy adolat – barqarorlik tayanchi Demokratiyaning mazmun-mohiyati, demokratiyaga zid boshqaruv idora shakllari va uslublarining barham topishi. Demokratiyaning shartlari va mezonlari. Demokratiyaning milliy xususiyatlarni o‘zida ifoda etishi. Demokratik qadriyat va demokratik tamoyillar. Demokratik xalqaro munosabatlar va dunyo taraqqiyoti. Demokratiya xususiyatlari: umumbashariylik, mintaqaviylik va milliylik. Demokratiya va fuqarolik jamiyatining shakllanish madaniyati, alohida xususiyatlari va o‘zaro uyg‘unligi. Fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish muammosi. Hokimiyat va fuqaro: o‘zaro munosabatlarning huquqiy va ma’naviy asoslari. Islohot subektlarining faollashuvi bilan bog‘liq muammolar. Ijtimoiy adolat tamoyili. Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish va umumdavlat barqarorligining yaxlit jarayon ekanligi. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasining mohiyati va ahamiyati. “Jamoatchilik nazorati” tushunchasining mohiyati va ahamiyati. “Fuqarolik jamiyati”ning ta’rifi, mohiyati. Fuqarolik jamiyatiga oid qarashlar. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Mustaqillik davrida jamiyat tizimidagi institusional o‘zgarishlar. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgi va mezonlari, funksiya hamda tamoyillari.Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Fuqarolik jamiyatini shaklllantirish va rivojlantirishda davlatning bosh islohotchilik roli. Siyosiy partiyalar faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar. Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish jarayonlari. Davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish masalalarining yoritilishi. «Konstitusiya» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Konstitusiyaning funksiyalari. Konstitusiya shakllari va turlari. «Suverenitet» tushunchasi. Davlat, millat va xalq suvereniteti. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari: bayroq, gerb va madhiY. «Xalq hokimiyatchiligi» tushunchasi va uning asosiy mazmun-mohiyati. Xalq hokimiyatchiligi – davlat hokimiyati qurilishining asosiy prinsipi. Xalq hokimiyati vujudga kelishining asosiy shakllari: bilvosita va bevosita demokratiY. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarining ustuvorligi. Konstitusiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi. Qonuniylik va huquq-tartibot. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari tasnifi. Konstitusiyaviy huquq va erkinliklarning asosiy xususiyatlari. Inson va fuqarolarning konstitusion burchlari va burchlar tengligi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati. Davlat fuqarolar huquqi va erkinligi kafolati sifatida. Fuqarolar huquq va erkinligining sud tomonidan himoyalanishi. O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimida siyosiy partiyalarning tutgan o‘rni. Ikki palatali parlamentning ijobiy jihatlari. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraksiyalari. Davlat boshqaruvi mexanizmida nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va turlari. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish tartibi. Davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlarining tutgan o‘rni. Saylovlar va ularning ijtimoiy funksiyasi. Demokratik saylovlarning o‘ziga xos xususiyati va tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasining saylov

tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Saylovlarni o‘tkazishda adolat va haqiqat mezoni. Referendum va saylovlarning o‘zaro farqli jihatlari. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining davlat boshqaruvi mexanizmida tutgan o‘rni va roli. «Bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash» prinsipining mohiyati va hokimiyatlar taqsimlanish amaliyotidagi ifodasi. Prezidentlikka saylovlar va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvini modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlarini muvofiqlashtirishga doir vakolatlari. Prezident tomonidan imzolanadigan meyoriy-huquqiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asoslari. Bosh vazir instituti va uni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatini shakllantirish tartib-qoidalari. Mahalliy davlat hokimiyatining davlat boshqaruvi mexanizmida tutgan o‘rni. Hokimlik institutining vujudga kelish sabablari. Hokim – mahalliy vakillik organi rahbari. Mahalliy vakillik organlarini shakllantirish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat boshqaruv organlari tizimida tutgan o‘rni va ijtimoiy ahamiyati. Oliy Majlis palatalarini shakllantirish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining vakolatlari. Senatorlar va Oliy Majlis deputatlarini saylash tartibi. «Elektron hukumat» tizimining afzalligi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish: davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish; qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiysiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish; siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish: davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish; mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish; «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish: xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish; fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish; mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish; ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish. O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish, fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari, Jinoyat va jinoyatprosessual qonunchilikni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqligi. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da sud-huquq tizimini isloh etish maqsadida bildirilgan takliflar bo‘yicha amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar. Sud tizimi va unda Konstitusiviy sudning o‘rni. Sud hokimiyatining davlat hokimiyati tizimida tutgan o‘rni va roli. Sudda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zaro tortishuv bo‘lishini ta’minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar. Jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish. O‘zbekistonda o‘lim jazosining bekor qilinishi va

uning mazmuni. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish: sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; sudyalarga g‘ayriqonuniy tarzda ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish; sudning mustaqilligi va beg‘arazligi, sud prosessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish; «Xabeas korpus» institutini qo‘llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish; sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash: fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash; fuqarolarning xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash; fuqarolarning odil sudlovga to‘sqinliksiz erishishini ta’minlash; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish: jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish; odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik sud ish yurituvining prosessual asoslarini takomillashtirish; jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish; elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish: jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash: huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o‘qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotasiya qilish tizimini takomillashtirish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo‘yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish: davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish; advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma’muriy va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish; notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish. Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi. Kuchli ijtimoiy siyosat – barqarorlik asosi. Bozor va ijtimoiy himoya: tajribalar, muammolar va yechimlar. Ijtimoiy himoya va uni amalga oshirishda davlatning asosiy funksiyalari. Ijtimoiy adolat tushunchasi. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo‘l-yo‘riqlari. Ijtimoiy siyosat: ziddiyat va yechimlar. Kuchli ijtimoiy siyosat – O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat siyosatining bosh yo‘nalishi. Islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va ijtimoiy siyosatda ro‘y bergan o‘zgarishlar. «Aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining

mazmun-mohiyati. Ommaviy ma’naviy va iqtisodiy qashshoqlashuv milliy xavfsizlik barqarorligi va taraqqiyotga tahdid ekanligi. Inson kapitali va inson omili. Ijtimoiy hayotda turli tabaqa va qatlamlar orasidagi uyg‘unlik va mutanosiblikni qaror toptirish masalalari. Xalqning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o‘rin egallash ijtimoiy siyosatning bosh maqsadi sifatida. Inson qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish muammolari va ijtimoiy tajriba.Ijtimoiy siyosat hamda fuqarolar dunyoqarashi va ruhiyatida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasidaijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish: aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish; byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur’atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish; yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish; mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish: aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirgan holda sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish; oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko‘rsatish, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasbhunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash; pensionerlar, nogiron, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish; farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholi o‘rtasida kasallanish ko‘rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minlash. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘ltransport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizasiya qilish: aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash; aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta’minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni tubdan yaxshilash; odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizasiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo‘q qilish bo‘yicha zamonaviy obyektlar bilan ta’minlash; aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish; yo‘l

infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, aholi punkti ko‘chalarini kapital va joriy ta’mirlash; yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizasiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish; maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish; kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish. Demokratiya, ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati «Demokratiya» va «ijtimoiy adolat» tushunchalarining o‘zaro uyg‘unligi. «O‘zbekiston — demokratik va ijtimoiy adolatli jamiyat» tezisining mohiyati. O‘zbekistonda barpo etilayotgan adolatli jamiyat asoslari: ijtimoiy himoya, davlatning kuchli islohotchilik siyosati. Markaziy davlat organlari vazifalarining mahalliy hokimiyat va o‘zinio‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi. «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» tezisining izchil amalga oshirilishi. Har bir fuqaro erkining va erkin yashash huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi; inson va jamiyat farovonligi, davlat bosh islohotchi va jamiyatning uyushtiruvchi, tashkil etuvchi organi ekanligi. «Xalq ham bevosita, ham o‘z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to‘liq imkoniyatga ega» g‘oyasining siyosiy mazmuni. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosiga oid parlament nazorati. Parlament nazoratining asosiy shakllari: parlament so‘rovi, parlament eshituvi, deputat so‘rovi. Demokratiya va hokimiyat taqsimoti. «Siyosiy partiya» tushunchasi. Siyosiy partiyalarning tashkil topishi. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari.

Siyosiy partiyalar faoliyatining moliyaviy ta’minlash masalalari. Siyosiy partiyalar matbuoti. Saylov tizimida siyosiy partiyalarning o‘rni. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining joriy etilishi. Xalq hokimiyatchiligi qaror topishida siyosiy partiyalarning ahamiyati. Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish. Siyosiy partiyalar va jamiyat tizimlari. Siyosiy partiyalar mafkurasi. Siyosiy partiyalarning fraksiyalari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko‘p yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rnini qo‘lga kiritgan siyosiy partiY. “Ekoharakat”. Jamoatchilik nazorati. Siyosiy muxolifat. Elektorat. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning fuqarolik jamiyatini boshqarishdagi ishtiroki «Nodavlat», «notijorat», «jamoat birlashmalari» tushunchalari. «Uchinchi sektor». Jamoat birlashmalari aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat va xalq o‘rtasidagi asosiy bo‘g‘in sifatida. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatni demokratlashtirishdagi roli. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasining izchil amalga oshirilayotgani. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyma’naviy asoslari. Jamoat birlashmalarining funksiyalari va xususiyatlari. O‘zbekistan Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari yaratilishi. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari faoliyati. «Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun. O‘zbekistondagi jamoat birlashmalari: kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, faxriylar va ijodiy uyushmalar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda ularning faoliyati. Milliy-madaniy markazlar, diniy konfessiyalar. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyaida ijtimoiy sheriklikning ahamiyati. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni Jamiyat shakllanishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni. Mamlakatimizda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning shakllari, ularning demokratik jamiyat qurishdagi roli. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o‘zini o‘zi boshqarish tizimining tiklanishi. Fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta’minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishda mahallaning o‘rni. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkil etilishi, boshqarish usuli, mahallani rivojlantirish va mavqeini oshirishdagi ahamiyati. Fuqarolar yig‘ini. Qishloq, ovul, mahalla oqsoqollari kengashlarining tuzilishi, vazifalari va amaliy faoliyati. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. Mahalla – jamiyat totuvligi va inson tarbiyasining tayanchi. Oilani mustahkamlash – jamiyat barqarorligini saqlashning asosi. Mahallaning oilaviy biznesni rivojlantirishdagi o‘rni. Ichki ishlar ishlar organlari tizimining isloh etilishi va ularning jamoatchilik bilan aloqalarining mustahkamlanishi. Mahallada yarashtirish komissiyasining roli. O‘zbekiston siyosiy tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati «Ommaviy axborot vositalari», «senzura», «to‘rtinchi hokimiyat», «so‘z erkinligi» va «so‘z mas’uliyati» tushunchalari. Senzuraning bekor qilinishi. Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlashda mustaqil jamoatchilik fondlarini tuzish. Davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarining tizimini shakllantirishda ushbu fondlarning o‘rni. Raqamli teleradioeshittirish. Ommaviy axborot vositalarining «to‘rtinchi hokimiyat» deb atalishining ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelishi. Internet tarmog‘i. Internet ijtimoiy tarmoqlarining aholi ongiga ta’siri. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari. Axborotlar olish va uzatish erkinligi. Jurnalistlarning OAVdan ma’lumot olish huquqlari. Ijtimoiy fikrlar OAV rivojlanishining omili.

V BO‘LIM. MUSTAQILLIK MAFKURASI NEGIZLARI, MA’NAVIYAT, MA’RIFAT, MILLIY G‘OYA VA MAFKURA VA DAVLATNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TAHDIDLAR, ULARNI BARTARAF ETISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Sobiq Sho‘rolar hukmronligi sharoitida milliy ma’naviyatimizning toptalishi va uning siyosiy, ma’rifiy va ma’naviy oqibatlari. Mamlakatimizning mustaqillikka erishish ostonasida milliy va

ma’naviy qadriyatlarimizning tiklanishi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqillik davrida milliyma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’nalarimizga bo‘lgan munosabatlarning tubdan o‘zgarishi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura” hamda “Yangicha fikrlash va ishlash–davr talabi” asarlaridagi ijtimoiy va ma’naviy sohalarga doir vazifalar va ularni amalga oshirish yo‘nalishlari. Mustaqillik mafkurasining moddiy va ma’naviy asoslari, tarixiy negizlari, xalqimiz, millatimizning tarixiy ong va xotirasi milliy va ma’naviy mafkuramizni shakllantirish omili ekanligi. Mustaqillik mafkurasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari. Mustaqillik mafkurasining milliy va umumbashariy tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida ma’naviyat va ma’rifat masalalariga e’tibor. Shuningdek, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarlarida va «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida», “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” kitoblarida ilgari surilgan metodologik konsepsiyaning mohiyati. Istiqlolning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatlari. Yoshlar ongi va qalbiga milliy g‘urur, milliy oriyat, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirish. Milliy ma’naviyat va milliy o‘zlikni anglash. Ozod Vatan, o‘z yurtiga sohiblik hissini tarbiyalash omillari. Har bir shaxsning o‘z mamlakati manfaatlarini himoya qilish burchi. «Mening davlatim», «Mening xalqim», «Mening Vatanim» tushunchalarining yurakdan mustahkam joy olishi. Milliy va ma’naviy tiklanish Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi. Milliy qadriyatlarimiz va milliy o‘zlikni anglash. Milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni shakllantirish. Buyuk allomalarimiz va ularning merosiga bo‘lgan yuksak e’tibor. Ulug‘ ajdodlarimizning tavallud ayyomlarini o‘tkazish, muqaddas joylar va ziyoratgohlarni obod qilish. Milliy ma’naviyatni o‘rganishning siyosiy ahamiyati. Milliy ma’naviyatni tiklash – qaramlik ruhiyatidan qutulishning maqbul yo‘li. Inson barkamolligi asoslari. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy vama’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Bolalar sportiga e’tibor – kelajakka e’tibor. Milliy qadriyat, milliy ruhni tiklash. Millatsevarlik va o‘zga millatlarga hurmat. Milliy ma’naviyat bilan umumbashariy ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib borish. Davlat tiliga bo‘lgan munosabat va uning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati. Diniy qadriyatlarga bo‘lgan ijobiy munosabatning ahamiyati. An’anaviy diniy bayramlar, ularning tiklanishi, o‘tkazilishi.Vijdon va e’tiqod erkinligi. Vatanparvarlik tuyg‘usi, milliy ma’naviyatni tiklash – odamlar tafakkuridagi eski stereotiplarni o‘zgartirish, jamiyatni jipslashtirish va komil insonni tarbiyalashning asosiy omili. Ma’naviyat – inson idroki va dunyoqarashining mezoni ekanligi. Ma’naviyatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish, uning ahamiyati va zarurati. Ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida «shaxs», «millat», «jamiyat», «davlat», «adolat», «oriyat»,” shukronalik” tushunchalari va ularning sharhi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida ma’naviy va ma’rifiy ishlarni amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari, rahbar shaxs ma’naviyati, axloqiy jihatlari, mas’uliyati va majburiyati. Ma’naviyatni anglash va uni shakllantirish. Ma’naviyatning ma’no-mazmunini belgilovchi mezon va meyorlar. Ma’naviyat – inson idroki va dunyoqarashining mezoni sifatida. Yoshlarda kamolotning asosiy mezoni hisoblangan yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlash. Shaxs, jamiyat va davlat hayotida ma’naviy qadriyatlarning zaruriyatini ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida o‘rganish, yuksak ma’naviy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati, ma’naviy va ma’rifiy yuksaklik mamlakat barqarorligini ta’minlovchi omil ekanligini yoshlarga tushuntirish, yuksak ma’naviyat jamiyat taraqqiyotining eng muhim mezoni va negizi ekanligini ilmiy asoslash. Yoshlarni ma’naviy qadriyatlarga munosabatini to‘g‘ri yo‘naltirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak!” nomli ma’ruzasida ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi. Globallashuv jarayonlaridagi ma’naviy tahdidlar, ma’naviy tajovuzlar hamda sotqinlik, xudbinlik,

hasadgo‘ylik, loqaydlik, mahalliychilik, millatchilik, urug‘-aymoqchilik va korrupsiya singari illatlarning asl mohiyatini ochib berish. Yoshlarda ma’naviyatga tahdid soluvchi illatlarga qarshi kurasha olish salohiyatini shakllantirish hamda milliy-madaniy merosimizga, buyuk allomalarimiz ijodlariga, milliy qadriyatlarimizga katta qiziqish bilan qarash, ularni muntazam o‘rganib borishga doir shaxsiy intilishlarni shakllantirish. Madaniyat, adabiyot va san’atga oid yodgorliklarni asrash. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarining amalga oshirilishi. Ma’naviy jasorat, sadoqat, mardlik, fidoiylik, ma’rifatparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarning ma’naviy-axloqiy mohiyati va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligini tushunib yetish va uning mazmuni inson faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi muhim zaruriyat ekanligi. Milliy g‘oya va mafkuraning asosiy negizlari Mafkuraviy bo‘shliq va uning xavfli oqibatlari. Jahondagi mafkuraviy kurashlar. «Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat» bilan kurashish prinsipi. «Kuch – bilim va tafakkurda». Milliy mafkura – xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch ekanligi. Milliy mafkura zarurati, yoshlar ongini yot mafkuralardan himoyalash masalalari. Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar.Ichki va tashqi tahdidlar va ularga qarshi turish omillari. Milliy g‘oya negizlari: vatanparvarlik, «Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi», «Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz» umummilliy g‘oyalarining mazmun-mohiyati. Buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi haqida. Milliy g‘oya va ma’naviy hayot. Sobiq totalitar mafkura va uning milliy ma’naviyatga salbiy ta’siri. Tarixiy xotiraning millat taraqqiyotidagi o‘rni. Milliy g‘oya va partiyalar, harakatlar, qarashlar. Turli yot g‘oyalar, ularga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish vositalari. Axborot xuruji, xavfsizlikka tahdid, etnik, millatlararo ziddiyatlar hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlari. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Eng buyuk jasorat – bu ma’naviy jasorat” ekanligi haqidagi fikrlari. Milliy g‘oya va umumjamiyat intilishini ifodalovchi g‘oyalar. Milliy g‘oya – O‘zbekiston xalqlarining umuminsoniy demokratik g‘oyasi. O‘zbekiston xalqining tinch-totuvligi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta’minlash – bosh maqsad.Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha harakatlar strategiyasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish; fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish; favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish; O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat chegarasini delimitasiya va demarkasiya qilish masalalarini hal etish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi «Millat», «elat» va «etnos» tushunchalari. Milliy va umuminsoniy ma’naviyat mazmuni. Milliy manfaatlar va umuminsoniyat manfaati. Hozirgi dunyoda inson ma’naviyatini yuksaltirishning obektiv va subektiv omillari. «Egosentrizm», «klonlashtirish», «terrorizm», «odam savdosi», «noqonuniy migrasiya» ma’naviy qashshoqlik hodisalari sifatida. «Bir qutbli dunyo», «sivilizasiyalar to‘qnashuvi» kabi g‘oyalarning ma’naviyatga zid hodisalar ekanligi. Dunyo dinlarining milliy ma’naviyatni rivojlantirishdagi o‘rni. Fan – milliy ma’naviyatlar integrasiyasini harakatga keltiruvchi kuch. Milliy

